



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## **Tarmoqlashgan lizing-jamg'armasi (klaster lizing fondi)ni tashkil etish va uning savdo korxonalari samaradorligiga ta'siri**

**Toshnazarova Nafisa**  
*SamISI tayanch doktoranti*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishda tarmoqlashgan lizing-jamg'armasi (klaster lizing fondi)ni tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda klaster yondashuvi asosida tashkil etilgan lizing fondlarining savdo korxonalarini zamonaviy texnika va jihozlar bilan ta'minlashdagi roli ochib berilgan. Shuningdek, klaster lizing fondining savdo korxonalari faoliyat samaradorligi, rentabellik darajasi va raqobatbardoshligiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari savdo infratuzilmasini rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini asoslab beradi.*

*Kalit so'zlar: lizing, klaster yondashuvi, lizing jamg'armasi, savdo korxonalari, moddiy-texnika baza, samaradorlik, investitsiya mexanizmi.*

Savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqobat yuqori bo'lgan bozorda yutishning asosiy mexanizmlaridan biri bu mahsulotni narxi past joyini aniqlash, yetkazib berish xarajatlarini qisqartirish hamda saqlash xarajatlarini tejash hisoblanadi.

Bu jarayonda narx past joyini aniqlash korxonaga uchun katta muammo tug'dirmaydi, ammo, ularni tashish va saqlashda muommolar vujudga keladi.

Savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda tashish hamda saqlash bo'yicha vujudga keladigan muommolar quyidagilardan iborat:

Birinchi, savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda kichik hajmdagi mahsulotlarni xarid qilish juda ko'p uchraydi, ammo kichik hajmdagi mahsulotga ko'rsatiladigan transport xarajati hamda katta hajmdagi mahsulotga ketadigan transport xarajati katta farq qilmaydi,

natijada bir birlik mahsulotga taqsimlanadigan xarajat oshib ketadi.

Ikkinchidan, katta hajmdagi mahsulot olib kelinsa katta hajmdagi mahsulotni saqlash imkoniyati mavjud bo'lmaydi.

Uchinchidan, katta hajmdagi mahsulotni saqlash imkoniyati yaratilgan vaziyatda kichik hajmdagi mahsulot saqlansa, bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat oshib ketadi.

Yuqoridagi muommolarni yechimi sifatida savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda tarmoqlashgan lizing-jamg'arma (klaster lizing fondi) asosida uskunani markazlashgan xarid qilish mexanizmi taklif qilindi.

**Tarmoqlashgan lizing-jamg'armasi (klaster lizing fondi)** deganda, ehtiyojlardan kelib chiqib asbob-uskunalarni xorijdan va mahalliy ishlab chiqaruvchilardan markazlashgan holda katta hajmda xarid qiladigan, ularni saqlash, ishlov berish, ta'mirlash, komplektatsiya qilish hamda ularni lizing shartnomalari asosida savdo korxonalariga yetkazib beradigan, ularga kafolat, texnik hamda savdo xizmatlarini ko'rsatadigan moliyaviy tashkilotga aytiladi.

Tarmoqlashgan lizing-jamg'armasi (klaster lizing fondi) ning afzallik tomonlarini quyidagi jadvalda aks ettiramiz (1-jadval).

**1-jadval.**


**Tarmoqlashgan lizing-jamg'armasi (klaster lizing fondi) ning samarali jihatlari**

<b>Tarmoqlashgan lizing-jamg'armasi (klaster lizing fondi)</b>	<b>Savdo korxonalarini natijalari</b>
<b>I. Katta hajmda markazlashgan xarid qilish mexanizmini joriy qilish orqali bir birlikka to'g'ri keladigan kapital xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari</b>	
1.1. Uskunalarni markazlashgan xarid qilish natijasida xarid narxlarini pasaytirish, shuningdek ta'minotchilardan narxdan tushishlar, chegirmalar olish	Uskunalarni xarid tannarxini 3–4% kamaytirish orqali bir birlikka kapital xarajatlar pasayadi
1.2. Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan transport, ortish-tushirish, sertifikatlash, deklaratsiya qilish, bojxona xizmatlari va boshqa xarajatlarni kamaytirish	Uskunalarni xarid tannarxini 3–4% kamaytirish orqali bir birlikka kapital xarajatlar pasayadi
1.3. Katta partiyada markazlashgan xarid qilish natijasida uskunalar birligiga to'g'ri keladigan doimiy xarajatlar, jumladan saqlash, binolar ijarasi, kommunal va maishiy xizmatlar, qo'riqlash va boshqa xarajatlar hissasini kamaytirish orqali mahsulot birligi tannarxini kamaytirish	Savdo korxonalarida uskunalarni xarid tannarxini 2–3% ga kamaytirish orqali bir birlikka kapital xarajatlar kamayadi

<b>II. Lizing mexanizmini joriy qilish orqali bir yo‘la amalga oshiriladigan katta kapital sarflarni qisqartirish</b>	
2.1. Savdo korxonalariga lizing asosida sotish natijasida katta kapital mablag‘larni tejab qolish, yillar kesimida bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati	Kapital mablag‘larni joriy faoliyatga yo‘naltirish, aylanma mablag‘larni saqlab qoladi, lizing to‘lovlari uskunadan olinayotgan daromad bilan muvofiqlashtiriladi
2.2. Lizing shartnomasi bo‘yicha bo‘lib-bo‘lib to‘lash natijasida pul mablag‘larini diskontlangan qiymatda hisobga olish, daromad olish va moliyalashtirish manbalariga ega bo‘lish	Pul mablag‘laridan moliyaviy daromad olish, uzoq muddatli, qayta aylanuvchi moliyalashtirish manbai yuzaga keladi, kredit yuklamasi kamayadi
<b>III. Klaster yondashuvi orqali samaradorlikni oshirish</b>	
3.1. Uskunalarni ishlab chiqaruvchidan iste‘molchilarga yetkazishda qatnashadigan korxonalariga klaster yondashuvini joriy qilish orqali bitta moliyaviy mexanizmga birlashtirish	Uskunalarning harakati, savdo korxonalarining moddiy-texnika bazasini yangilash siklini tezlashtirish
3.2. Zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta‘minlash, korxonalarini modernizatsiya qilish	Asbob-uskunalaridan foydalanish samaradorligi oshadi

O‘zbekiston sharoitida joriy etish imkoniyatlari: savdo va xizmat ko‘rsatish klasterlari asosida; hududiy lizing fondlarini tashkil etish; davlat tomonidan; foiz stavkalarini subsidiyalash; soliq imtiyozlari; kafolat mexanizmlari.

Ushbu mexanizm quyidagi subyektlarning jamoaviy ish muhitini tashkil qilish asosida ishlaydi. Savdo xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda savdo xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda klaster-lizing tizimining ishlashi uchun ushbu subyektlar asosida muhit shakllantirilishi lozim (1-rasm).



**1-rasm. Savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda klaster-lizing tizimining ishlashi hamkorlik qiluvchi subyektlar**

Ushbu tizim asosida bir nechta savdo korxonalari ehtiyojlarini birlashtirgan holda maxsus tashkil etilgan lizing jamg'armasi (fondi) orqali uskuna va texnologiyalarni yirik hajmda, markazlashgan tarzda xarid qilish va ularni lizing shartlari asosida korxonalariga taqsimlash mumkin.

Ushbu jarayonni amalga oshirishda yuqorida takidlab o'tilgan har bir subyektning o'z vazifalari mavjud (-jadval).

-jadval

**Savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda klaster-lizing tizimining ishlashi hamkorlik qiluvchi subyektlar vazifalari**

<b>Ishtirokchi</b>	<b>Vazifasi</b>
<b>Savdo korxonalari (klaster a'zolari)</b>	Uskunaga bo'lgan ehtiyojni bildiradi
<b>Klaster lizing fondi</b>	Mablag'larni jamlaydi va xaridni tashkil etadi
<b>Bank / moliya instituti</b>	Kredit yoki moliyaviy resurs bilan ta'minlaydi
<b>Uskuna yetkazib beruvchilar</b>	Yirik partiyada uskunani yetkazadi
<b>Davlat / rivojlanish jamg'armalari (ixtiyoriy)</b>	Subsidiya, kafolat, imtiyoz beradi

Savdo korxonalari uchun tarmoqlashgan lizing-jamg'arma (klaster lizing fondi) asosida uskunani markazlashgan xarid qilish mexanizmini joriy etish orqali xizmat ko'rsatishning bir birlikka to'g'ri keladigan kapital xarajatlarini pasaytirish va savdo korxonalari moddiy-texnika bazasini yangilash siklini tezlatish imkoni yaratiladi.

Taklif etilayotgan mexanizm: savdo korxonalarining investitsion faolligini oshiradi; moddiy-texnika bazasini yangilash jarayonini tezlashtiradi; xizmat ko'rsatish sifati va raqobatbardoshligini oshiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Gazeta.uz. Savdo va xizmatlar sohasi bo'yicha yangiliklar [Elektron resurs]. – 2025. – URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2025/03/11/tsa/> (murojaat sanasi: 17.12.2025).
2. Xolmatov D.H. Ulgurji savdo korxonalarida tovar zaxiralarini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2020. – № 4 (iyul–avgust).
3. Saydullayev Sh.Z. Savdo korxonalari raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – 2023. – 3-son.
4. Mamatqulov G'.X. Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida): dissertatsiya avtoreferati [Elektron resurs]. – URL: <https://oak.uz/pages/14485>
5. Sattarova N.T. Savdo xizmatlarini rivojlantirishni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va uni baholashning metodologik masalalari // *Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy*. – 2022. – № 2 (150).
6. Siarikov A.A. Osnovnye pokazateli KPI v roznichnoy trgovle [Elektron resurs]. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-pokazateli-kpi-v-roznichnoy-torgovle/viewer>
7. Klyuchevye pokazateli effektivnosti (KPI) v roznichnoy trgovle [Elektron resurs]. – URL: [https://kilbil.ru/blog/kpi\\_v\\_roznichnoj\\_torgovle](https://kilbil.ru/blog/kpi_v_roznichnoj_torgovle)
8. Klyuchevye pokazateli analiza roznichnoy trgovli [Elektron resurs]. – URL: <https://spaceplanner.ru/analiz-roznichnoi-torgovli-metody-i-pokazateli>
9. Savdo korxonalarida iqtisodiy tahlil bo'yicha o'quv qo'llanma [Elektron resurs]. – URL: <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/1261954/61fe5efda8a5f.pdf>